



Esselarda badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi essening badiiy asar bo'lib shakllanishida muhim bir vazifani bajargan desak mubolag'a bo'lmaydi. Said Ahmad va O.Sharafiddinovlar esselarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari shaxslar va jamiyatdagi biror hodisa yoki holatni ifodalaganda ham, qahramonlarining hamda o'zlarining ichki dunyosi va ma'naviy takomilini yoritganda ham so'zni g'oyatda tabiiylik bilan qo'llashida asqotgan. Natijada biz esselarni o'qiganimizda hayot hodisasi yuz berayotgan jarayonni ko'rib turgandek bo'lamiz. Har ikkala ijodkarlarimiz tasvirida tilimiz o'zining qudratini, keng imkoniyatini, boyligini, go'zalligini namoyon etgan bo'lib, har qanday nozik tushunchani, nozik ma'noni ham ifodalashga qodir ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Said Ahmad va O.Sharafiddinov hayotiy haqiqatlarni, ijodkorlar nutqini adabiy-badiiy davraga olib kirishi adabiyotimiz taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Ijodkorlarning tilning nihoyatda rangdor va tiniq ifodalashi natijasida essedagi aytilayotgan fikrlarni tezda yorqin anglaymiz. Bu natijani albatta, badiiy tasvir vositalarni ishlatilishidagi o'rni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. -T.: Sano-standart, 2014.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: Sharq, 2004
4. Sharafiddinov O. Zamondoshlar xotirasida, -T.: Sharq, 2019.
5. <https://kh-davron.uz>. Esse-erkin ijod. Shukur Xolmirzayev bilan suhbat. 2018.29.09.

TA'LIMDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH DAVR TALABI

Surmaxon Ismoilova

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullaridan dars jarayonida foydalanish, har bir o'qituvchi o'z faoliyatining innovatsiyalar asosida tashkil etsa, ya'ni darslarni yangi



pedagogik texnologiyalar asosida olib borsa, o'quvchini qiziqishi ortadi va darsda o'qituvchi yuqori samaradorlikka erishadi. Ushbu maqolada biz komil insonni tarbiyalash, ta'lim jarayonida ularni faollashtirish yo'llari, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'ratib berishga harakat qildik.

Kalit so'z: innovatsiya, motivatsiya, innovatsion faoliyat, interfaol usul, bilim, ko'nikma, vaziyat, muammo, radikal innovatsiya, modifikatsiyalangan innovatsiya, kombinatsiyalangan innovatsiya.

KIRISH

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali olib borilmoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiyaga amal qila boshladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Prezidentimiz tomonidan 2022 yilning 20 dekabr kuni yo'llangan Murojaatnomada ko'tarilgan masalalar dolzarbligi, muammolar va ularning yechimi hamda intellektual va emotsional zalvoriga ko'ra Yangi O'zbekistonning 2023 yildagi rivojlanish konsepsiyasini belgilab berdi va Murojaatnomasining bosh mavzusi ta'lim siyosati bo'ldi.

Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

«Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi».



Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullar o'z-o'zidan yoki yuqoridan buyruq, ko'rsatma bilan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir. Agar har bir o'qituvchi o'z faoliyatining innovatsiyalar asosida tashkil etsa, ya'ni innovatsion faoliyat yuritisa, o'quv jarayonida sifat ko'rsatkichlariga erishish kafolatlanadi. Shu o'rinda «innovatsion faoliyat» nima?- degan savol tug'iladi.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasiga ta'rif berishdan oldin innovatsiya tushunchasiga to'xtalib o'tmoqchi bo'ldik.

Lug'aviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi **muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni** ifodalaydi.

Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular:

1. **Faoliyat yo'nalishiga ko'ra:** pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. **Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra:** radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. **O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra:** tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. **Kelib chiqish manbaiga ko'ra:** jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim **muammoli ta'lim** deb ataladi.

Muammoli ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

J.Dyui muammoli ta'limning asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan:

- 1) ijtimoiy;
- 2) konstruktiv;
- 3) badiiy ifodaviy;
- 4) ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

- 1) so'z;
- 2) san'at asarlari;
- 3) texnik qurilmalar;
- 4) o'yinlar;
- 5) mehnat.

O'tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta'lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan.



S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

M.N.Skatkin muammoli ta’lim turlarini quyidagilarga bo‘ladi:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma’ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg‘ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli ta’limning asosini **muammo** (yun. “to’siq”, “qiyinchilik”) yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli TT ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammoning **tarkibiy qismlari**:

- 1) ma'lum bilimlar;
- 2) noma'lum bilimlar;
- 3) mavjud tajriba.

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo‘yish quyidagi **bosqichlar**da kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo‘yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta’lim jarayonida muammoni qo‘yish bir necha sathda kechadi.

MUHOKAMA

Eng avvalo «faoliyat» tushunchasini izohlash kerak. Faoliyat bu-ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsiy, guruh, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsad sari yo‘naltirilgan harakatdir. Faoliyat o‘z maqsadiga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. Masalan: tadbirkorlik faoliyati, pedagogik faoliyat, o‘quv-biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati, innovatsion faoliyat va h.k.



«Innovatsion faoliyat» bu-ma'lum doiradagi muammolarni yechish uchun yangilikni kiritishga yo'naltirilgan harakatgina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lish hamdir.

Boshqa faoliyat turlari kabi innovatsion faoliyat ham o'zining berilgan madaniy shakliga, sub'ektlariga, maqsadlariga, vositalariga va o'zining amalga oshish shart-sharoitlariga ega. Innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotning konkret sub'ekt nuqtai nazaridan, amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan yangi faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin.

Innovatsion faoliyat bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'aviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorini yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan kompleks muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion faoliyatning asosiy xususiyatlari quyidagilar: ijodiy faoliyat texnologiyasini egallash; avval egallagan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga ko'chira olish; muammolarni ajrata olish; ob'ektning yangi funksiyalarini ko'ra bilish; muqobil yechimlar topa olish; o'z-o'zini va o'z faoliyatini tasnifiy olish bilim va ko'nimalari.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Agar innovatsion faoliyat yuqorida sanab o'tilgan shart va talablarga mos kelsa, u holda uning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning paydo bo'lishi demakdir. Bunday sharoitda innovatsion faoliyatda yangiliklarning tashkiliy boshqaruvini rasmiylashtirish zarur va ular o'zgarayotgan amaliyotda mustahkamlanib qolishi kerak.

Innovatsion faoliyat natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan kashfiyotlarni-ixtiroga, ixtironi-loyihaga, loyihani-texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Belgilangan ketma-ketlik oldindan berilgan.

Innovatsion faoliyatda yangiliklar akademik ilm mantiqi bo'yicha tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.



Maxsus innovatsion faoliyat davrida innovatsiyalar ta'limning turli sohalariga kiritiladi. Innovatsion faoliyatning infra tuzilmasini innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni innovatsion faoliyat sub'ektlariga taklif etuvchi tashkilotlar tashkil etadi. Demak, malaka oshirish institutlari, tuman (shahar) metodika kengashlari, maktab metod birlashmalari o'qituvchilar innovatsion faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'ladigan xizmatlarni tashkil etishlari kerak.

NATIJALAR

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bir necha bosqichda, uzluksiz malaka oshirish orqali amalga oshiriladi. Dastlab o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini shakllantirish kerak. Bunda o'qituvchi yetakchi didaktik prinsiplardan quyidagilarni bilish kerak: pedagogik ko'nikmalarni egallashga ehtiyoj bilan o'z faoliyatini o'zgartirishga ehtiyoj o'rtasidagi mutunosiblik; pedagogik jarayondan sub'et va ob'ektning birgalikdagi ijodiyoti; yangi, shu davrgacha ma'lum bo'lmagan vaziyatlardan chiqib keta olish.

Ikkinchi bosqichda psixologik-pedagogik bilimlar va pedagogik mahorat shakllantiriladi. O'quv-tarbiya jarayoni va uning natijalari pedagogik innovatsiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi va qo'llanishiga bog'liq. Innovatsiyalar esa innovatsion faoliyat davrida tom ma'noda ta'lim jarayoniga kiritiladi.

Davr talabi asosida dars o'tish, darslarda sifat va samaradorlikka erishish, yosh avlodni ham ma'nan, ham jismonan yetuk qilib tarbiyalash bugungi kun o'qituvchisining oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan bir.

Ta'lim tizimida DTS ishlab chiqarilib, yangi darsliklar avlodi yaratilgan, dastur va metodik qo'llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan bugungi kunda asosan o'qituvchi faoliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilanmasa ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, pedagogik faoliyat mutlaqo tug'ma talant emas, yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning asosida izlanish, ijodiy mehnat yotadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy



bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Innovatsion faoliyat ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Innovatsion faoliyatning asosiy talabi – o‘quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta’limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. O‘qish darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2006.
2. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Т.: Педагог, 2004.
3. Мадиярова С.А. ва б. Педагогик технология ва педагогик маҳорат /– Т.: “Iqtisod-moliya”, 2009.
4. Сайидахмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т.: РТМ, 1999.
5. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т.: Фан, 2006
6. Google uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnoma. 2022.20.12.